

"Operator algebralari, noassotsiativ tuzilmalar va turdosh muammolar" nomli respublika ilmiy konferensiyasi o'tkazildi

Joriy yil 14-15-sentabr kunlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti va O'zbekiston Milliy universiteti hamkorligida xorijiy olimlar ishtirokida "Operator algebralari, noassotsiativ tuzilmalar va turdosh muammolar" nomli respublika ilmiy konferensiyasi o'tkazildi. Konferensiya taniqli matematik olim, akademik, O'zbekiston qahramoni Ayupov Shavkat Abdullayevichning 70 yubileyi munosabati bilan tashkil etildi.





Sh.A.Ayupov O'zbekiston ilm fani, oliy ta'limi rivojiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan olim, operatorlar algebralari, kvant ehtimollar nazariyasi va noassotsiativ algebralalar sohasidagi dunyoga tanilgan zamonaviy ilmiy matabning rahbari hisoblanadi.

Konferensiyada respublikamizdagi taniqli matematik olimlar, akademiklar, yosh tadqiqotchilar va Qozog'iston, Rossiya, Avstraliya, Braziliya, AQSh, Xitoy, Malaziya davlatlaridan 10 ga yaqin soha mutaxassislari ishtirot etdi.

Konferensiya ishi operator algebralari va nokommutativ integrallashlar, noassotsiativ algebralarning strukturaviy nazariyasi, funksiyalar nazariyasi, matematik fizika va ehtimollar nazariyasi, dinamik sistemalar nazariyasi va statistik fizika sho'balarida olib borildi.





Unda operatorlar algebrasi va nokommutativ integrallash nazariyasining asosiy yo'nalishlari hamda assotsiativ bo'limgan algebra larning strukturaviy nazariyasi rivojlanishining hozirgi holati va istiqbollarini, funksiyalar nazariyasi shuningdek, ularning matematik fizika, dinamik sistemalar nazariyasi va kvant ehtimollik nazariyasida qo'llanishlari muhokama qilindi va o'zaro fikr almashildi.